O‘ZBEK TA’LIM TERMINOLOGIYASINI STANDARTLASHTIRISH MUAMMOLARI: ME’YORIY-HUQUQIY VA XALQARO JIHATLAR

G.E.Tog‘ayev[1]

1. Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Mas'ul muallif: Tog‘ayev G‘ofur Erkin o‘g‘li, Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

e-mail: gafurtogaev92@gmail.com

Received: 16 Noyabr 2026
Accepted: 21 Noyabr 2026
Published: 26 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Tog‘ayev, G. E. O‘ZBEK TA’LIM TERMINOLOGIYASINI STANDARTLASHTIRISH MUAMMOLARI: ME’YORIY-HUQUQIY VA XALQARO JIHATLAR / G. E. Tog‘ayev // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 406–412.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek ta’lim terminologiyasining hozirgi holati me’yoriy-huquqiy va xalqaro muvofiqlik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) va ta’lim sohasidagi boshqa hujjatlardagi terminlarning qo‘llanilishi, 1997-yilgi Qonunga nisbatan yuz bergan terminologik o‘zgarishlar, kredit-modul tizimi, inklyuziv, raqamli ta’lim va ta’lim sifatini baholash sohalarida paydo bo‘lgan yangi terminlar o‘rganilgan. O‘zbekiston ta’lim turlarining ISCED 2011 darajalari bilan taxminiy muvofiqligi ko‘rsatilgan. Sohadagi asosiy muammolar – sinonimiya va dubletlik, polisemiya, imloviy nomutanosiblik, tarjima ekvivalentligi, eskirgan terminlar va leksikografik ta’minotning yetarli emasligi aniqlanib, ta’lim terminologiyasini standartlashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta’lim terminologiyasi, standartlashtirish, me’yoriy hujjat, sinonimiya, dubletlik, ISCED, tarjima ekvivalentligi, terminologik baza, til siyosati.

ПРОБЛЕМЫ СТАНДАРТИЗАЦИИ УЗБЕКСКОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ: НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. В статье анализируется современное состояние узбекской образовательной терминологии с точки зрения нормативно-правового регулирования и международной сопоставимости. Изучено употребление терминов в Законе «Об образовании» (2020) и других документах, терминологические изменения по сравнению с Законом 1997 года, новые термины в сферах кредитно-модульной системы, инклюзивного и цифрового образования, оценки качества образования. Показано примерное соответствие видов образования Узбекистана уровням ISCED 2011. Выявлены основные проблемы – синонимия и дублетность, полисемия, орфографическая несогласованность, переводная эквивалентность, устаревшие термины, недостаточность лексикографического обеспечения – и разработаны практические предложения по стандартизации.

Ключевые слова: образовательная терминология, стандартизация, нормативный документ, синонимия, дублетность, ISCED, переводная эквивалентность, терминологическая база, языковая политика.

PROBLEMS OF STANDARDIZING UZBEK EDUCATIONAL TERMINOLOGY: REGULATORY, LEGAL, AND INTERNATIONAL ASPECTS

Abstract. The article analyses the current state of Uzbek educational terminology from the standpoint of legal regulation and international comparability. It examines the use of terms in the Law “On Education” (2020) and related documents, terminological changes compared with the 1997 Law, and new terms arising from the credit-module system, inclusive and digital education and assessment of educational quality. An approximate mapping of Uzbekistan’s types of education to ISCED 2011 levels is presented. The main problems are identified: synonymy and doublets, polysemy, spelling inconsistency, translation equivalence, obsolete terms and insufficient lexicographic resources. Practical proposals for standardizing the terminology are put forward.

Keywords: educational terminology, standardization, regulatory document, synonymy, doublets, ISCED, translation equivalence, terminology database, language policy.

Kirish. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari soha terminologiyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim turlari, ta’lim shakllari va asosiy tushunchalarni yangicha belgilab berdi [1]. Oliy ta’lim tizimining kredit-modul tizimiga o‘tkazilishi, maktabgacha ta’limning mustaqil tizim sifatida ajratilishi, inklyuziv ta’lim, masofaviy va raqamli ta’limning keng joriy etilishi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlariga qo‘shilish kabi jarayonlar o‘zbek tiliga o‘nlab yangi tushuncha va terminlarni olib kirdi. Ularning bir qismi o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yasalgan bo‘lsa, boshqa bir qismi ingliz yoki rus tilidan bevosita o‘zlashtirilgan, ayrimlari esa kalka yo‘li bilan tarjima qilingan. Natijada sohada bir tushunchaning bir necha nomlanishi, bir

terminning turli ma'nolarda ishlatilishi, imloviy nomutanosibliklar kabi muammolar yuzaga kelmoqda.

Davlat til siyosati ham terminologiya masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [2] hamda 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [3] bilan tasdiqlangan o'zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasida sohaviy terminologiyani tartibga solish, zamonaviy terminologik lug'atlar yaratish va terminlarning o'zbekcha muqobillarini ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun esa har bir soha terminologiyasining hozirgi holatini ilmiy asosda o'rganish, uning tarkibi, tarixiy qatlamlari va tizimiy munosabatlarini aniqlash zarur.

Terminologiyani standartlashtirish masalasi ta'lim sohasida alohida ahamiyatga ega, chunki ta'lim terminlari qonun hujjatlarida huquqiy oqibatlarga ega bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarda ko'rsatiladi va xalqaro miqyosda diplom va malakalarni tan olishda asos bo'lib xizmat qiladi. Terminning noaniqligi yoki turli hujjatlarda turlicha qo'llanilishi huquqni qo'llash amaliyotida chalkashliklarga, tarjimada esa ma'no buzilishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi – o'zbek ta'lim terminologiyasining hozirgi holatini me'yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro tasniflar bilan muvofiqlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, sohadagi asosiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Terminologiyani standartlashtirish nazariyasi va amaliyoti Ye. Vyuster asos solgan Vena terminologiya maktabida shakllangan bo'lib, uning asosiy tamoyillari – onomasiologik yondashuv, "bir tushuncha – bir termin" talabi va terminlarni me'yorlashtirish g'oyasi – keyinchalik xalqaro standartlarda mustahkamlangan [4]. Hozirgi kunda terminologik ishning asosiy tamoyil va metodlari ISO 704:2022 standartida, terminologiyaning asosiy tushunchalari esa ISO 1087:2019 standartida belgilangan [5; 6]. Xususan, ISO 704 standartida tushunchalar tizimini tuzish, ta'rif berish qoidalari va terminlarni "tavsiya etilgan", "ruxsat etilgan" va "tavsiya etilmagan" toifalarga ajratish tartibi bayon qilingan. Rus terminologiyasida bu masalalar D.S. Lotte va S.V. Grinev-Grinevich ishlarida batafsil ishlab chiqilgan [7; 8].

Shu bilan birga, M.T. Kabre va R. Temmerman kabi tadqiqotchilar qat'iy standartlashtirish yondashuvini tanqid qilib, terminologik variantlilik kommunikativ vaziyatga bog'liq tabiiy hodisa ekanligini, ayniqsa, gumanitar sohalarda tushunchalar prototipik tuzilishga ega bo'lishini ko'rsatib berdilar [9; 10]. Bu qarashlar ta'lim terminologiyasini standartlashtirishda muvozanatli yondashuvni talab etadi.

O'zbek tilshunosligida terminlarni tanlash va me'yorlashtirish mezonlari A. Hojiyev [11] va R. Doniyorov [12] tomonidan ishlab chiqilgan. Xalqaro ta'lim tizimlari bilan muvofiqlikni ta'minlashda esa YUNESKOning Ta'limning xalqaro standart tasnifi (ISCED 2011) asosiy manba hisoblanadi [13]. Pedagogik terminlarning ta'riflari o'zbek tilida J. Hasanboyev va hammualliflarning izohli lug'atida [14], rus tilida G.M. Kodjaspirova va A.Yu. Kodjaspirovning pedagogik lug'atida [15] jamlangan. Biroq o'zbek ta'lim terminologiyasini 2020-yilgi Qonun va so'nggi islohotlar asosida standartlashtirish masalalari hanuzgacha maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Tadqiqotda me'yoriy hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish, qiyosiy-chog'ishtirma, tavsifiy va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy material sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020) [1], Prezidentning ta'lim va til siyosatiga oid farmonlari [2; 3; 16] hamda ISCED 2011 tasnifi [13] olindi. Me'yoriy hujjatlardagi terminlar 1997-yilgi Qonun terminologiyasi bilan, o'zbekcha terminlar esa ularning rus va ingliz tillaridagi ekvivalentlari bilan solishtirildi. Yangi terminlar va ularning variantlarini aniqlashda ta'lim tashkilotlarining rasmiy hujjatlari, veb-saytlari va pedagogik mavzudagi ilmiy nashrlardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi ta'lim terminlari. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar ta'lim terminologiyasini kodifikatsiya qilishning, ya'ni terminlarning rasmiy shakli va ma'nosini mustahkamlashning muhim vositasidir. Qonun hujjatida berilgan ta'rif yuridik kuchga ega bo'lib, u barcha davlat idoralari va ta'lim tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. Shu ma'noda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun o'zbek ta'lim terminologiyasining eng muhim me'yoriy manbai hisoblanadi.

2020-yilgi Qonunning 3-moddasi "Asosiy tushunchalar" deb nomlangan bo'lib, unda davlat akkreditatsiyasi, davlat ta'lim standartlari, ta'lim dasturi, nodavlat ta'lim tashkiloti kabi tushunchalarga huquqiy ta'rif berilgan [1]. Masalan, Qonunda davlat ta'lim standartlari ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui sifatida, davlat akkreditatsiyasi esa ta'lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta'lim standartlari va talablariga muvofiqligini davlat tomonidan e'tirof etilishi sifatida ta'riflanadi. Bu ta'riflar soha terminologiyasini huquqiy jihatdan tartibga solish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Qonunning 6-moddasida ta'lim turlari belgilangan: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; qo'shimcha ta'lim [1]. 1997-yilgi Qonun bilan solishtirganda bu ro'yxatda bir qator terminologik o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, "o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi" tushunchasi o'rniga "professional ta'lim" termini kiritildi. Bu o'zgarish xalqaro amaliyotdagi "professional education" va "vocational education" tushunchalariga muvofiqlashtirish zarurati bilan izohlanadi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tilida "professional education" va "vocational education and training (VET)" tushunchalari bir-biridan farqlanadi: birinchisi ko'pincha oliy malakali kasblarga (huquqshunos, shifokor) tayyorlashni, ikkinchisi esa ishchi kasblarga va o'rta bo'g'in mutaxassislariga tayyorlashni anglatadi. O'zbek tilidagi "professional ta'lim" termini esa asosan ikkinchi ma'noda qo'llanilmoqda. Bu holat xalqaro hujjatlarni tarjima qilishda ekvivalentlik muammosini yuzaga keltiradi.

Qonunning 4-moddasida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar keltirilgan bo‘lib, ularning tarkibida “uzluksizlik va izchillik”, “butun hayot davomida ta’lim olish”, “kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi”, “teng imkoniyatlarning ta’minlanishi”, “ta’limning dunyoviy xususiyati” kabi tushunchalar mavjud [1]. “Butun hayot davomida ta’lim olish” tushunchasi inglizcha “lifelong learning” terminining o‘zbekcha tavsifiy ekvivalenti bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda uning “umrbod ta’lim”, “hayot davomidagi ta’lim”, “uzluksiz ta’lim” kabi variantlari ham uchraydi. Bu yerda yana bir muammo ko‘zga tashlanadi: “uzluksiz ta’lim” termini 1997-yilgi Qonun davrida ta’lim tizimining barcha bosqichlarini bir-biriga bog‘lovchi yaxlit tizim ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, xalqaro adabiyotda “lifelong learning” ko‘proq insonning butun hayoti davomida, shu jumladan, rasmiy ta’limdan tashqarida ham bilim olishini anglatadi. Shunday qilib, bu ikkala tushuncha o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, aynan bir xil emas.

Yangi Qonunda ta’lim olish shakllari ham kengaytirilgan. Unda masofaviy ta’lim, dual ta’lim, oilada ta’lim va mustaqil ta’lim olish, eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish, shuningdek, inklyuziv ta’lim masalalari alohida normalar bilan tartibga solingan [1]. “Dual ta’lim” (nemischa “duale Ausbildung”) termini nazariy ta’limni ishlab chiqarishdagi amaliy ta’lim bilan uyg‘unlashtirishni anglatadi va o‘zbek ta’lim terminologiyasiga nisbatan yangi kirgan. “Eksternat” esa sovet davridan ma’lum bo‘lgan, ta’lim dasturini mustaqil o‘zlashtirib, faqat attestatsiyadan o‘tish yo‘li bilan ta’lim olish shaklini anglatadi.

Me’yoriy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli yillarda qabul qilingan hujjatlarda ayni bir tushuncha turlicha nomlanishi hollari uchraydi. Masalan, “ta’lim muassasasi” va “ta’lim tashkiloti”, “pedagog kadrlar” va “pedagog xodimlar”, “o‘quv yuklamasi” va “o‘quv soatlari”, “malaka oshirish” va “kasbiy rivojlanish” kabi juftliklar turli hujjatlarda parallel qo‘llanilmoqda. Bu holat, bir tomondan, terminologiyaning rivojlanish jarayonida ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, huquqni qo‘llash amaliyotida noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois yangi qabul qilinadigan hujjatlarda Qonunda mustahkamlangan terminlarga qat’iy rioya qilish va eski hujjatlarni yangi terminologiyaga muvofiqlashtirish zarur.

Zamonaviy ta’lim islohotlari va yangi terminlar. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim terminologiyasiga bir necha yo‘nalishda yangi birliklar olib kirdi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

Kredit-modul tizimi terminlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish vazifasi belgilandi [16]. Bu tizimning joriy etilishi bilan “kredit”, “modul”, “sillabus”, “akademik soat”, “GPA”, “akademik qarzdorlik”, “tanlov fanlari”, “majburiy fanlar”, “akademik harakatchanlik”, “kreditlarni o‘tkazish”, “tyutor”, “akademik maslahatchi” (academic advisor) kabi terminlar oliy ta’lim amaliyotida faol qo‘llanila boshladi. Bu guruh terminlari uchun xos bo‘lgan xususiyat — ularning aksariyati xalqaro (asosan Yevropa va Amerika) oliy ta’lim tizimlari terminologiyasining bevosita o‘zlashtirilishi yoki kalka qilinishidir.

Kredit-modul tizimi terminlari orasida variantlilik ham kuzatilmoqda. Masalan, “syllabus” tushunchasi uchun “sillabus” va “fan dasturi”, “ishchi o‘quv dasturi” terminlari parallel ishlatiladi, biroq ular ma’no jihatidan to‘liq mos kelmaydi: sillabus odatda muayyan kursning maqsadlari, mavzulari, talablari, baholash mezonlari va adabiyotlarini o‘z ichiga olgan, talabaga qaratilgan hujjat bo‘lsa, “fan dasturi” ko‘proq fanning mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatdir. “Tutor” tushunchasi esa o‘zbek tilida “tyutor”, “tyutor”, “o‘qituvchi-maslahatchi”, “murabbiy” kabi shakllarda qo‘llanilmoqda.

Inklyuziv ta’lim terminlari. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limiga e’tiborning kuchayishi bilan “inklyuziv ta’lim”, “alohida ta’lim ehtiyojlari”, “imkoniyati cheklangan shaxslar”, “individual ta’lim dasturi”, “tyutorlik ko‘magi”, “universal dizayn” kabi terminlar keng iste’molga kirdi. Bu guruh terminlarida etik-kommunikativ jihat alohida ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda shaxsga yo‘naltirilgan til (“person-first language”) tamoyiliga muvofiq, “nogiron bola” kabi ifodalar o‘rniga “imkoniyati cheklangan bola”, “alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bola” kabi terminlar tavsiya etiladi. O‘zbek terminologiyasida ham bu tendensiya kuzatilmoqda, biroq eski va yangi terminlar hamon parallel qo‘llanilmoqda, bu esa terminlarni tanlashda aniq tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Raqamli va masofaviy ta’lim terminlari. 2020-yildagi pandemiya sharoitida ta’lim jarayonining masofaviy shaklga o‘tkazilishi raqamli ta’limga oid terminlarning juda tez tarqalishiga sabab bo‘ldi. “Masofaviy ta’lim”, “onlayn ta’lim”, “elektron ta’lim”, “aralash ta’lim”, “vebinar”, “onlayn kurs”, “raqamli ta’lim resurslari”, “elektron darslik”, “virtual laboratoriya”, “ta’limni boshqarish tizimi” (LMS), “videodars”, “sinxron va asinxron ta’lim” kabi terminlar qisqa vaqt ichida nafaqat ilmiy, balki ommaviy nutqqa ham kirib keldi. Bu terminlarning ko‘pchiligi ingliz tilidan kalka yoki bevosita o‘zlashtirish yo‘li bilan hosil bo‘lgan. Masalan, “videodars” gibrid qo‘shma so‘z bo‘lib, u baynalmilal “video” va arabcha “dars” komponentlaridan tashkil topgan.

Bu guruhda sinonimiya hodisasi ayniqsa kuchli. “Masofaviy ta’lim”, “onlayn ta’lim” va “elektron ta’lim” terminlari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi, vaholanki ilmiy adabiyotda ular farqlanadi: masofaviy ta’lim o‘qituvchi va ta’lim oluvchining jismonan bir-biridan uzoqda bo‘lishi bilan, onlayn ta’lim internet orqali amalga oshirilishi bilan, elektron ta’lim esa elektron axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, bu tushunchalar o‘zaro kesishsa-da, bir-biriga teng emas.

Ta’lim sifatini baholash terminlari. O‘zbekistonning PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi bilan “funksional savodxonlik”, “o‘qish savodxonligi”, “matematik savodxonlik”, “tabiiy-ilmiy savodxonlik”, “ta’lim natijalari”, “xalqaro baholash dasturlari” kabi terminlar keng qo‘llanila boshladi. “Funksional savodxonlik” (functional literacy) termini insonning olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi va u

an'anaviy "savodxonlik" (o'qish va yozishni bilish) tushunchasidan ancha kengdir. Shuningdek, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari ham davlat ta'lim standartlarida asosiy tushunchalardan biriga aylandi. Biroq pedagogik adabiyotda bu ikki terminning farqi hamma vaqt ham aniq ajratilmaydi: odatda "kompetensiya" ta'lim oluvchiga qo'yiladigan talablar majmuini, "kompetentlik" esa shaxsning ana shu talablarni amalda bajara olish sifatini anglatadi.

Pedagogik texnologiyalar terminlari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan "interaktiv metodlar", "keys-stadi", "aqliy hujum" (brainstorming), "klaster", "venn diagrammasi", "sinkveyn", "SWOT-tahlil", "flipd klass" yoki "teskari sinf" (flipped classroom), "geymifikatsiya", "STEAM ta'limi" kabi terminlar ta'lim amaliyotiga kirib keldi. Bu terminlarning ba'zilari (masalan, "aqliy hujum") kalka yo'li bilan o'zbekchalashtirilgan bo'lsa, boshqalari (masalan, "klaster", "sinkveyn", "geymifikatsiya") bevosita o'zlashtirilgan. "Flipped classroom" tushunchasi uchun esa "teskari sinf", "ag'darilgan sinf", "flipd klass" kabi bir necha variant uchraydi. Bu holat ham sohada terminlarni muvofiqlashtirish ishlarining zarurligini tasdiqlaydi.

Ta'lim turlarining xalqaro tasnifga muvofiqligi. Ta'lim terminologiyasining tizimliligini baholashda milliy terminlarning xalqaro tushunchalar tizimi bilan muvofiqligi ham muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan ta'lim turlari va bosqichlarining ISCED 2011 darajalari bilan taxminiy muvofiqligi keltirilgan. Jadval muallif tomonidan ISCED 2011 ta'riflari asosida tuzilgan bo'lib, rasmiy kartografiyalash hujjati sifatida qaralmasligi lozim.

1-jadval.

O'zbekiston ta'lim turlarining ISCED 2011 darajalari bilan taxminiy muvofiqligi

O'zbekcha termin	Inglizcha ekvivalent (tavsiya)	ISCED 2011 darajasi
Maktabgacha ta'lim va tarbiya	Early childhood education	0
Boshlang'ich ta'lim (1–4-sinflar)	Primary education	1
Umumiy o'rta ta'lim (5–9-sinflar)	Lower secondary education	2
Umumiy o'rta ta'lim (10–11-sinflar)	Upper secondary education	3
Professional ta'lim (dastur turiga qarab)	Vocational education and training	3–5
Oliy ta'lim: bakalavriat	Bachelor's or equivalent level	6
Oliy ta'lim: magistratura	Master's or equivalent level	7
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD, DSc)	Doctoral or equivalent level	8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi "umumiy o'rta ta'lim" termini xalqaro tasnifdagi ikkita (ISCED 2 va 3) yoki boshlang'ich ta'limni ham qo'shganda uchta darajani qamrab oladi. "Professional ta'lim" termini esa dastur mazmuni va davomiyligiga qarab bir necha ISCED darajasiga mos kelishi mumkin. Shu sababli xalqaro hujjatlarda va diplom ilovalarida o'zbekcha terminlarni tarjima qilishda ularni tegishli ISCED darajasi ko'rsatilgan holda berish maqsadga muvofiq.

Ta'lim terminologiyasidagi asosiy muammolar. Yuqoridagi tahlillar asosida o'zbek ta'lim terminologiyasining hozirgi holatiga xos bo'lgan bir qator tizimli muammolarni ajratish mumkin.

Sinonimiya va dubletlik. Terminologiya nazariyasida ideal terminga qo'yiladigan asosiy talablardan biri – uning sinonimga ega bo'lmasligi, ya'ni "bir tushuncha – bir termin" tamoyiliga muvofiqligidir [7; 11]. Biroq o'zbek ta'lim terminologiyasida bu tamoyil ko'p hollarda buziladi. Bu yerda turli genetik manbalarga mansub terminlar o'rtasidagi dubletlik alohida o'rin tutadi. Masalan, "talaba" va "student", "imtihon" va "ekzamen", "baho" va "otmetka" (og'zaki nutqda), "o'quv dasturi" va "programma", "ma'ruza" va "leksiya", "saboq" va "dars", "muallim" va "o'qituvchi" kabi juftliklar mavjud. Ularning bir qismida rasmiy me'yor aniq belgilangan (masalan, rasmiy hujjatlarda "talaba" va "imtihon" ishlatiladi), biroq og'zaki nutqda va ayrim yozma matnlarda har ikkala variant parallel qo'llanilmoqda. Boshqa bir qismida esa dubletlardan biri uslubiy jihatdan ajralib, eskirgan yoki ko'tarinki uslubga xos so'zga aylangan: masalan, "muallim" va "ustoz" so'zlari hozirgi rasmiy terminologiyada "o'qituvchi" va "pedagog" terminlariga nisbatan kam qo'llanilib, ko'proq hurmat, ehtirom ma'nosini ifodalaydi.

Yangi terminlar orasida sinonimiya ayniqsa kuchli. Masalan, "blended learning" uchun "aralash ta'lim", "gibrid ta'lim", "integrallashgan ta'lim"; "flipped classroom" uchun "teskari sinf", "ag'darilgan sinf", "flipd klass"; "tutor" uchun "tyutor", "tyutor", "o'qituvchi-maslahatchi"; "lifelong learning" uchun "umrbod ta'lim", "butun hayot davomida ta'lim olish", "hayot davomidagi ta'lim" kabi variantlar mavjud. Bunday holatning sababi shundaki, yangi tushuncha tilga kirganda uni nomlash bir vaqtning o'zida turli mualliflar, tarjimonlar va tashkilotlar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi va markazlashgan muvofiqlashtirish mexanizmi yetarli darajada ishlamaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, R. Temmerman va M.T. Kabre kabi tadqiqotchilar ko'rsatganidek, sinonimiya har doim ham salbiy hodisa emas: u terminologiyaning rivojlanish bosqichida tabiiy ravishda yuzaga keladi va turli kommunikativ vaziyatlarda (ilmiy, rasmiy, ommabop) turli variantlardan foydalanish imkonini beradi [9; 10]. Biroq me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari, darsliklar va ta'lim to'g'risidagi rasmiy hujjatlarda terminlarning bir xilligi ta'minlanishi shart, chunki bu yerda sinonimiya huquqiy noaniqlikka va ta'lim sifatini baholashda chalkashlikka olib kelishi mumkin.

Polisemiya va ma'no noaniqligi. Ta'lim terminologiyasidagi ko'plab asosiy terminlar ko'p ma'nolidir. Masalan, "ta'lim" so'zi o'zbek tilida rus tilidagi "obrazovaniye" (ta'lim tizimi, ta'lim olganlik darajasi) va "obucheniye" (o'qitish

jarayoni) tushunchalarining har ikkalasini ifodalaydi. Rus tilida bu tushunchalar aniq farqlanadi, ingliz tilida esa “education”, “learning”, “teaching”, “instruction”, “training” kabi bir necha termin mavjud. O‘zbek tilida esa “ta’lim”, “o‘qitish”, “o‘qish”, “o‘rganish”, “tayyorlash” terminlari bu tushunchalarni to‘liq va izchil farqlay olmaydi. Masalan, “learning outcomes” tushunchasi “ta’lim natijalari”, “o‘quv natijalari”, “o‘qish natijalari” kabi turlicha tarjima qilinmoqda, “teaching and learning” birikmasi esa ko‘pincha “o‘qitish va o‘rganish” yoki “ta’lim jarayoni” deb beriladi.

Shu kabi, “tarbiya” termini ham keng va tor ma’nolarda qo‘llaniladi: keng ma’noda u shaxsni shakllantirishga qaratilgan barcha ta’sirlarni (ta’limni ham qo‘shgan holda) anglatsa, tor ma’noda axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy sifatlarni shakllantirishni anglatadi. “Maktab” termini ham muassasa, ta’lim bosqichi va ilmiy yo‘nalish ma’nolarida qo‘llaniladi. Bunday hollarda terminning aniq ma’nosi kontekstdan anglashiladi, biroq ilmiy va me’yoriy matnlarda ta’riflar orqali ma’noni aniqlashtirish zarur.

Imloviy nomutanosiblik. O‘zbek tilida kirill va lotin yozuvlari parallel qo‘llanilayotganligi ta’lim terminlari imlosida ham muayyan nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, rus tili orqali kirgan baynalmilal terminlarning lotin yozuvidagi imlosida turli variantlar uchraydi: “modul” – “modul” / “modul’”; “tyutor” – “tyutor” / “tutor”; “kompetensiya” – “kompetensiya” / “kompetentsiya”; “akkreditatsiya” – “akkreditatsiya” / “akkreditasiya”; “litsey” – “litsey” / “lisey”. Bunday nomutanosiblikning asosiy sabablari “s” harfining lotin yozuvida “s” yoki “ts” bilan berilishi, yumshoqlik belgisining berilish-berilmasligi va inglizcha terminlarni rus tilidagi shakli yoki asl inglizcha shakli asosida yozish masalasidagi noaniqlikdir. 1995-yilda tasdiqlangan o‘zbek tilining lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari bu masalalarni to‘liq hal etmaganligi va o‘zlashma terminlar uchun maxsus imlo lug‘atlari yetarli emasligi ham bu muammoni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, qo‘shma va juft terminlarning yozilishida ham variantlilik mavjud: “o‘quv-uslubiy” va “o‘quv uslubiy”, “kredit-modul” va “kredit modul”, “ta’lim-tarbiya” va “ta’lim va tarbiya”. Bunday holatlar rasmiy hujjatlar, darsliklar va ilmiy nashrlarda bir xillikni ta’minlashni qiyinlashtiradi.

Tarjima ekvivalentligi muammosi. O‘zbek ta’lim tizimi xalqaro tizimlarga integratsiyalashgan sari ta’lim hujjatlarini ingliz tiliga va aksincha tarjima qilish zarurati ortmoqda. Bu jarayonda ta’lim terminlarining o‘zaro mos kelmasligi jiddiy muammoga aylanmoqda. Masalan, “umumiy o‘rta ta’lim” tushunchasi ISCED tasnifidagi qaysi darajaga (ISCED 1–3) mos kelishini aniqlash, “o‘rta maxsus ta’lim” va “professional ta’lim” tushunchalarini ISCED 3–5 darajalari bilan to‘g‘ri solishtirish, “oliy ta’limdan keyingi ta’lim” tushunchasini xalqaro “doctoral education” yoki “postgraduate education” tushunchalari bilan muvofiqlashtirish kabi masalalar diplom va malakalarni xalqaro tan olishda muhim ahamiyatga ega [13]. Xuddi shuningdek, “dotsent”, “katta o‘qituvchi”, “assistent” kabi lavozimlar va “fan nomzodi”, “fan doktori”, “PhD”, “DSc” kabi ilmiy darajalarning xalqaro ekvivalentlari ham har doim ham bir xil tarjima qilinmaydi.

Leksikografik ta’minotning yetarli emasligi. O‘zbek tilida ta’lim sohasiga oid izohli va tarjima lug‘atlar mavjud bo‘lsa-da [14; 17], ularning ko‘pchiligi so‘nggi islohotlardan oldin nashr etilgan va kredit-modul tizimi, inklyuziv va raqamli ta’limga oid yangi terminlarni qamrab olmagan. Shuningdek, ta’lim terminlarining ko‘p tilli (o‘zbekcha-ruscha-inglizcha) elektron terminologik bazasi mavjud emas. Bunday baza terminologik ishlarni muvofiqlashtirish, tarjimonlar va pedagoglar uchun ishonchli ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin edi.

Eskirgan terminlar va huquqiy-tarixiy izchillik. Ta’lim tizimidagi islohotlar natijasida bir qator terminlar iste’moldan chiqmoqda yoki o‘z ma’nosini o‘zgartirmoqda. Masalan, 1997–2017-yillarda keng qo‘llanilgan “kasb-hunar kolleji” termini professional ta’lim tizimining qayta tashkil etilishi natijasida rasmiy iste’moldan chiqdi va uning o‘rnida “kasb-hunar maktabi”, “kolledj” va “texnikum” terminlari qo‘llanila boshladi. Ayniqsa, “texnikum” termini sovet davridan keyin deyarli iste’moldan chiqqan bo‘lsa-da, bugungi kunda yangi mazmun bilan yana faol qo‘llanilmoqda. Bunday holatlar tarixiy terminlarning ma’nosi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkinligini va ularni talqin qilishda hujjatning qabul qilingan sanasini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Masalan, 2010-yilda kasb-hunar kollejini tamomlagan va bugungi kunda kolledjni tamomlagan bitiruvchilarning hujjatlari turli ta’lim dasturlariga asoslangan bo‘lishi mumkin. Shu sababli terminologik lug‘atlarda ta’lim terminlarining tarixiy ma’nolarini ham qayd etish, ularning qaysi davr hujjatlarida qanday ma’noda qo‘llanilganini ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, ayrim ta’lim terminlari determinologizatsiyaga, ya’ni umumiste’mol leksikaga o‘tib, o‘zining aniq terminologik ma’nosini yo‘qotishga uchramoqda. Masalan, “kompetensiya”, “kreativ”, “innovatsion”, “interaktiv” kabi so‘zlar ommaviy axborot vositalari va kundalik nutqda juda keng va ko‘pincha noaniq ma’noda ishlatilmoqda. Natijada ularning pedagogik ma’nosi “xiralashib”, so‘zlar baholovchi-reklama xarakteridagi ifodalarga aylanib qolmoqda (“innovatsion dars”, “kreativ yondashuv”). Bu holat ilmiy-pedagogik matnlarda mazkur terminlarni qo‘llashda ularning aniq ta’rifiga tayanish zaruratini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ikki xil yondashuv o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ko‘rsatadi. Birinchi yondashuv – puristik yondashuv bo‘lib, u chet tillaridan o‘zlashgan terminlar o‘rniga o‘zbekcha muqobillar yaratishni ustuvor deb biladi. Ikkinchi yondashuv – internatsionalistik yondashuv bo‘lib, u xalqaro terminlarni o‘zgarishsiz qabul qilishni yoqlaydi. Mustaqillik yillaridagi tajriba shuni ko‘rsatdiki, har ikkala yondashuvning ham o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Masalan, 1990-yillarda baynalmilal terminlarni o‘zbekcha so‘zlar bilan almashtirishga bo‘lgan urinishlarning bir qismi muvaffaqiyatli bo‘ldi (“talaba”, “imtihon”), boshqa bir qismi esa tilda o‘rnashmadi yoki parallel variantlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Bizningcha, ta’lim terminologiyasida muvozanatlashgan yondashuv maqsadga muvofiq: xalqaro muvofiqlik muhim bo‘lgan sohalarda (ilmiy darajalar, kredit tizimi, xalqaro baholash) baynalmilal terminlarni saqlash, umumiste’mol va keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan sohalarda (maktabgacha va maktab ta’limi, ota-onalar bilan muloqot) esa tushunarli o‘zbekcha yoki kalka terminlarni ustuvor ko‘rish lozim.

Standartlashtirish jarayonida ISO 704 standartida nazarda tutilgan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq [5]. Unga ko‘ra har bir tushuncha uchun bitta “tavsiya etilgan” termin belgilanadi, amaliyotda keng tarqalgan boshqa variantlar “ruxsat etilgan” yoki “tavsiya etilmagan” deb belgilanadi. Bu yondashuv sinonimlarni majburiy ravishda yo‘q qilmasdan, rasmiy matnlarda bir xillikni ta’minlash imkonini beradi. Masalan, “blended learning” tushunchasi uchun “aralash ta’lim” tavsiya etilgan, “gibrid ta’lim” ruxsat etilgan, “integrallashgan ta’lim” esa tavsiya etilmagan termin sifatida belgilanishi mumkin. Bunday qarorlar, albatta, tilshunoslar, pedagoglar va huquqshunoslar ishtirokidagi ekspertiza asosida qabul qilinishi lozim.

Ta’lim terminologiyasining o‘ziga xos jihati shundaki, uning asosiy “foydalanuvchilari” faqat mutaxassislar emas, balki o‘quvchilar, talabalar va ota-onalardir. Bu esa terminologik me’yorning tarqalishida darsliklar va o‘qituvchilarning rolini alohida muhim qiladi. O‘quvchi maktabda o‘rgangan terminlarni keyinchalik o‘z nutqida ham, o‘z farzandlari bilan muloqotda ham qo‘llaydi. Shu ma’noda darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va rasmiy ta’lim hujjatlarida terminlarning izchil qo‘llanilishi terminologik me’yorni mustahkamlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Pedagoglar va darslik mualliflari uchun ta’lim terminlari bo‘yicha qisqa me’yoriy qo‘llanma (stil-gayd) yaratish ham bu vazifani hal etishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, raqamli muhitning rivojlanishi terminologik me’yorni tarqatishning yangi imkoniyatlarini ochmoqda. Elektron terminologik baza, mobil ilovalar, ta’lim platformalariga integratsiyalashgan lug‘atlar va mashina tarjimasi tizimlari uchun tayyorlangan parallel terminologik ro‘yxatlar ta’lim terminlarining yagona shaklda tarqalishini ta’minlashi mumkin. Bu, ayniqsa, tarjimonlar va ta’lim tashkilotlarining xalqaro bo‘limlari uchun muhimdir, chunki aynan ular yangi xalqaro terminlarning o‘zbekcha ekvivalentlarini birinchi bo‘lib ishlatadilar va shu tariqa ularning tarqalishiga katta ta’sir ko‘rsatadilar.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) o‘zbek ta’lim terminologiyasini kodifikatsiya qilishning asosiy manbai bo‘lib, unda ta’lim turlari, ta’lim olish shakllari va asosiy tushunchalarga huquqiy ta’rif berilgan. Biroq turli yillarda qabul qilingan hujjatlarda ayni bir tushunchaning turlicha nomlanishi hollari saqlanib qolmoqda.

Ikkinchidan, kredit-modul tizimi, inklyuziv, raqamli va masofaviy ta’lim, ta’lim sifatini baholash va pedagogik texnologiyalar sohalarida so‘nggi yillarda ko‘plab yangi terminlar paydo bo‘ldi. Ularning aksariyati ingliz tilidan bevosita yoki kalka yo‘li bilan o‘zlashgan bo‘lib, ko‘pchiligi uchun bir necha parallel variant mavjud.

Uchinchidan, o‘zbek ta’lim turlari terminlari xalqaro ISCED 2011 tasnifi darajalariga har doim ham bir ma-bir mos kelmaydi, bu esa tarjima va diplomlarni tan olishda muammolar tug‘diradi.

To‘rtinchidan, o‘zbek ta’lim terminologiyasining hozirgi holati uchun sinonimiya va dubletlik, polisemiya, imloviy nomutanosiblik, tarjima ekvivalentligi va leksikografik ta’minotning yetarli emasligi kabi muammolar xos.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ta’lim sohasidagi terminologik ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida ta’lim vazirliklari, filologlar, pedagoglar va tarjimonlardan iborat doimiy ishchi guruh tashkil etish va yangi terminlarni muomalaga kiritishdan oldin ularni ekspertizadan o‘tkazish tartibini joriy etish.

ISO 704 va ISO 1087 standartlari tamoyillariga asoslangan holda o‘zbek ta’lim terminlarining ko‘p tilli (o‘zbekcha-ruscha-inglizcha) elektron terminologik bazasini yaratish; har bir termin uchun ta’rif, tavsiya etilgan va ruxsat etilgan shakllar, ekvivalentlar va qo‘llanish misollarini ko‘rsatish.

Pedagogika fanidan zamonaviy izohli lug‘atni yangi tahrirda nashr etish va unga kredit-modul tizimi, inklyuziv, raqamli va masofaviy ta’lim, xalqaro baholash tadqiqotlariga oid terminlarni kiritish.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan terminlarni barcha qonunosti hujjatlarida, davlat ta’lim standartlarida, darsliklarda va ta’lim tashkilotlarining rasmiy hujjatlarida izchil qo‘llash; eski hujjatlardagi terminlarni yangi terminologiyaga muvofiqlashtirish.

O‘zbek tilining ISCED 2011 tasnifiga muvofiq ta’lim darajalari va dasturlari bo‘yicha rasmiy tarjima ekvivalentlarini tasdiqlash va ulardan diplom ilovalari hamda xalqaro hisobotlarda foydalanish.

Lotin yozuvidagi o‘zlashma terminlar imlosi bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish va ta’lim terminlarining imlo lug‘atini tayyorlash.

Pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga kasbiy terminologiyani to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha maxsus modullarni kiritish.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim terminologiyasini tartibga solish va standartlashtirish nafaqat lingvistik, balki ta’lim sifati, huquqiy aniqlik va xalqaro integratsiya bilan bog‘liq muhim davlat ahamiyatiga molik vazifadir. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etish tilshunoslar, pedagoglar, huquqshunoslar va davlat idoralarining hamkorlikdagi izchil faoliyatini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yil, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/5013007

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 21.10.2019-yil, PF-5850-son. – URL: https://lex.uz/docs/4561730

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 20.10.2020-yil, PF-6084-son. – URL:

https://lex.uz/docs/5058351

[4] Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979.

[5] ISO 704:2022. Terminology work – Principles and methods. – Geneva: ISO, 2022.

[6] ISO 1087:2019. Terminology work and terminology science – Vocabulary. – Geneva: ISO, 2019.

[7] Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – М.: Изд-во АН СССР, 1961.

[8] Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение: учеб. пособие. – М.: Академия, 2008.

[9] Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1999.

[10] Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2000.

[11] Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent: Fan, 1996.

[12] Doniyorov R. Terminlarni o‘zlashtirish mezonlari haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1991. – № 6.

[13] UNESCO Institute for Statistics. International Standard Classification of Education: ISCED 2011. – Montreal: UIS, 2012.

[14] Hasanboyev J., To‘raqulov H., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

[15] Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словар. – М.: Академия, 2000.

[16] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 08.10.2019-yil, PF-5847-son. – URL: https://lex.uz/docs/4545884

[17] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildlik / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.